

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING OILA BILAN OLIB BORADIGAN ISH MAZMUNI**

**Jabborova Dilshoda Normuradovna,**  
*Jizzax shahar 32-DMTT direktori.*

**Pirnazarova Nafosat Jurakulovna,**  
*Jizzax shahar 32-DMTT direktor o'rinnbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida oilaning o'mri, yurtimizda oilaga ko'rsatilayotgan e'tibor, DMTTning oila bilan ishlashining yakkama-yakka (individual) va jamoaviy shakllari va tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif tashkiloti, pedagogik maslahat, jamoaviy, individual, anatomik, fiziologik, ruhiy xususiyatlari.

Ma'lumki, oila jamiyatning ajralmas bo'lagidir. Oila vatan ichidagi kichik bir vatan, aynan mana shu muqaddas dargohda yaxshilik, ezgulik, vatanga muhabbat kabi go'zal tuyg'ular shakllanadi va kamol topadi. Bola shaxsi shakllanishida sog'lom oilaviy muhit katta ahamiyatga ega. Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafo-sadoqat bolalarning quvnoq, xushchaqchaq o'sishlari, normal tarbiyalanishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha ta'rif mavjud: "Oila ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga

asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilayotgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir". Yurtimizda azal-azaldan oilaga katta e'tibor berib kelingan va hozirda ham yurtimizda amalga oshirilayotgan juda ko'p islohotlar ham aynan oilani mustahkamlashga qaratilgan hisoblanadi. Misol tariqasida, yurtimizda 1998-yil "Oila yili", 1999-yil "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod" yili deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari "Oila kodeksi"ning yangi tahriri ishlab chiqilishi ham oilaga katta e'tibor berilayotganidan darak. Bola tug'ilgandanoq ilk tarbiyaning ildizi oiladan berila boshlanadi, oiladan olinayotgan tarbiya esa MTTga borganida tarbiyachi tomonidan yanada mustahkamlanib, sayqallanadi.

**Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:**

- bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lif tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;
- Ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyayasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- Ota-onalarini bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik), fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish.

MTTning ota-onalar bilan ishlashning jomoaviy tarzida va yakkama-yakka holda ishlar shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

MTT xodimlarining ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:



- Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi.

MTTlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan: oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari.

Maktabgacha ta'lif tashkilotining oila bilan olib boradigan ishlarining individual shakllariga esa quyidagilar kiradi:

- Oilaga tashrif buyirish.
- Pedagogik topshiriq
- Pedagogi maslahat.

Maktabgacha ta'lif tashkilotining oila bilan olib boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga quyidagilar kiradi:

- Pedagogik ma'ruzalar:
- Pedagogik ta'lif unimlashtirish
- Yillik ilmiy-amaliy konferensiya:
- Ochiq eshiklar kuni yoki ta'lif tashkilotida ota-onalar kuni:
- Ota-onalar majlisi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, har bir oily ma'lumotli pedagog tarbiyachi yosh avlodni sog'lom barkamol shaxs qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bu maqsadga erishish uchun tarbiyachi oila bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'ya bilishi kerak. Buning uchun tarbiyachi bolaning uyiga tashrif buyirishi, bolaning oilaviy ahvoli bilan tanishishi, ota-onasi bilan ijobiy munosabatda bo'lishi bolaning anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ota-onaga pedagogik maslahatlar berishi lozim. Tarbiyachi oila bilan ishslashda jamoaviy va yakkama-yakka (individual) ishslash shakllarini mohirlik bilan olib borishi kerak, shundagina soha oldiga qo'yilgan maqsadlarga erisha oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.R. Qodirova ,Sh.Q.Toshpo'latova,N.M.Kayimova,M.N.Azamova. "Maktabgacha pedagogika" T: Tafakkur" Toshkent 2019. Darslik.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazaryasi va metodikasi (darslik). T: "Barkamol fayz media", 2018,320-bet.
3. Jamoa.Oila pedagogikasi. T: "Aloqachi".2007-yil.120-bet.
4. X.A.Meliyev, O.Jamoldinova, K.Riskulova. "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021 yil.
5. X.A.Meliyev, M.X.Qilichova. "Maktabgacha pedagogika". Toshkent. Darslik. 2022 yil. 471 bet.
6. X.A.Meliyev, Sh.A.Buranova, M.A.Norqo'ziyeva.
7. "Oznakomleniye s prirodoy". Darslik. Toshkent. 2022 yil. 330 bet.
8. X.A.Meliyev, Sh.A.Buranova. "Mahalla, oila va
9. maktabgacha ta'lif tashkiloti hamkorlik tizimi ishlarini takomillashtirish". Monografiya. Jizzax. 2020 yil.
10. Norqo'ziyeva M. "Yangi innovatsiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llash fanidan ma'ruzalar matni". / Uslubiy qo'llanma / – Jizzax: JDPU "Tahririy-nashriyot bo'limi nashri", 2023. – 108 bet.